

O‘ZBEKISTONDA KO‘RISH BO‘YICHA NOGIRONLIGI  
BO‘LGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA  
SPELLING KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH  
MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Gulsanam Xasanova,  
Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

Xurshid Toshov,  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ozod Qurbonov,  
Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan maktab o‘quvchilarida ingliz tilidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirishga oid muammolar intervyu metodi orqali o‘rganiladi. Bunda Brayl yozuvidagi adabiyotlar etishmovchiligi, o‘zbek va ingliz tilidagi so‘zlarning yozilishi hamda talaffuz qilinishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan farqlar, Brayl yozuviga asoslangan ingliz alifbosi va lotin grafikasidagi o‘zbek alifbosi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlardan kelib chiquvchi chalkashliklar, tifloko‘rgazmaviy materiallarning etishmovchiligi, asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlarini tayyorlash bilan bog‘liq murakkabliklar, ayni toifa o‘quvchilarda ingliz tilini o‘rganishdagi psixologik qiyinchiliklar kabi muammolar tahliliga alohida e‘tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** inglizcha-o‘zbekcha lug‘at, Brayl yozuvi, spelling, tiflota’lim, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internati, maxsus printer, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxs, reading, writting, aloqa daftari, audio.

### 1. Kirish

Har qanday zamonaviy jamiyatda, xususan o‘zbek jamiyatida ham ta’lim tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan maktab o‘quvchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qobiliyatlarini namoyon qilish uchun etarli shart-sharoitlar yaratish davlat ijtimoiy siyosatining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bu borada yoshlarga xorijiy tillarni o‘rgatish, maxsus maktablarni jahon standartlariga to‘la javob beruvchi o‘quv adabiyotlari va lug‘atlar bilan ta’minlash, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga til o‘rgatishning maxsus usullarini ishlab chiqish g‘oyat ahamiyatli hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, yoshlar, xususan ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan maktab o‘quvchilariga chet tilni o‘rgatish muammosi o‘ziga xos sotsiologik tahlilni taqozo etadi. Chunki jamiyatning faol ijtimoiy guruhi sifatida yoshlar ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni qabul qilishda, ularni amalga oshirishda sezilarli rol bajaradi. Bundan tashqari, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan yoshlarning jamiyatga qanchalik tez va to‘siqlarsiz integratsiya bo‘lishi ushbu jamiyatdagi muhim ijtimoiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Shu bois “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-

DOI:

<https://doi.org/10.62499/>

ijmcc.vi6.69

**Iqtibos:**

Xasanova, Gulsanam; Toshov, Xurshid; Qurbonov, Ozod. 2024. O‘zbekistonda ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan maktab o‘quvchilarida spelling ko‘nikmalarini shakllantirish muammolari va istiqbollari International Journal of Media and Communications in Central Asia. 6: 38-50.

internatlarida chet tilni o'rgatish muammosini chuqur tahlil etish ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rgatishga ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021 yil 19 maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-sonli (On measures, 2021) qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, bugungi kunda respublikada xorijiy tillar, xususan ingliz tilini o'qitish borasida ko'plab amaliy, nazariy-uslubiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joiz, ayni yo'nalishda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlar uchun ham maxsus manbalarga, bu toifa shaxslarning ingliz tilini oson va qulay shaklda o'zlashtirishlariga qaratilgan yangi, innovatsion g'oyalarga ehtiyoj katta.

Aytish lozimki, ingliz tili qoidalariga ko'ra, so'zlarning yozilish va o'qilish tartibida bir qancha farqlar mavjud. Ularni farqlay bilish, so'zlarni to'g'ri o'qish, shuningdek, to'g'ri talaffuz qilish uchun etarli darajada malaka bo'lishi shart. SHu bois ingliz tilini asosan tinglash orqali o'zlashtiruvchi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan o'rganuvchilarda yozma nutqning shakllanishida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Sababi tilni o'qib o'rganish uchun taktil sezgilarga mo'ljallangan Brayl yozuvidagi manbalar va o'quv adabiyotlari etarli emas. Bunday vaziyatda ularning til o'rganish borasidagi muammolari zalvori og'irlashib boraveradi. Shulardan kelib chiqqan holda, ingliz tilini o'zlashtirish borasida yangi qulayliklarni taqdim etuvchi «Spelling audio dictionary» audioqo'llanmasini yaratish orqali mazkur muammoni biroz bo'lsa-da engillatishga erishish mumkin.

O'zbekistonda ayni toifadagi lug'atlar va o'quv adabiyotlarining birmuncha kam chop etilgani fakti sohada etarlicha tajriba mavjud emasligi omili bilan izohlanishi mumkin. Shuni nazarda tutgan holda, bunday toifadagi lug'atlarni tayyorlash, chop etish va manzilli tarqatishga oid iste'molchilar hamda ekspertlar fikrlarini tadqiq etishga katta ehtiyoj mavjudligi ma'lum bo'ladi.

## **2. Metodlar va manbalar**

Mavzuning o'rganilganlik darajasi bo'yicha ko'rib chiqilgan barcha adabiyotlarni ikki guruhga, ya'ni ilmiy-nazariy asarlar hamda amaliy tadqiqot tusidagi materiallarga ajratish mumkin. Jumladan, rossiyalik tadqiqotchilardan O.Minina va Y.Vostrova ko'rish bo'yicha nogironligi bor talabalarga tibbiyot va gumanitar

sohaga ixtisoslashtirilgan ingliz tilini o'rgatish usullarini tahlil qilgan bo'lsa, N.Gritsishina, L.Gureva spelling ko'nikmalarini shakllantirishda o'yinli texnologiyalar orqali hayotiy vaziyatlarni modellashtirish va ularni hal qilish yo'llarini tahlil qilgan (Minina, 2024; Vostrova, 2016; Gritsishina, Gureva, 2011).

Dog'iston davlat pedagogika universiteti olimlari J.Mallaev va X.Nurmagomedova tadqiqotida mavzuning metodologik aspektlariga e'tibor qaratilgan. M.K. Ammosov nomidagi SHimoli-sharqiy federal universitetining (Rossiya) mualliflar jamoasi A.Nikolaev, E.Parfenov, I.Artyomov, V.Afanasev ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan, jumladan to'liq ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmagan o'quvchilarga chet tillarni ilk marta o'qitish metodologiyasi va yangi yondashuvining xususiyatlarini tahlil qilgan (Mallaev, 2017; Nikolaev, 2019).

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi X.Ruhiddinov ko'zi ojiz o'quvchilarda interfaol metodologiyalar orqali tinglab tushunish ko'nikmalarini oshirishning nazariy asoslarini o'rgangan. Yana bir rossiyalik tadqiqotchi Y.Ivanova ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarga ingliz tilini o'rgatish xususiyatlari, dasturi va metodikasini Rossiya, AQSH misolida tavsiflagan (Ivanova, 2019). Sankt-Peterburg shahridagi K.Grota nomidagi 1-sonli davlat maktab-internatining ingliz tili fani o'qituvchilari O.Vorobeva va O.Katsap ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar bilan ishlashda ularning shaxsiyati va kognitiv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini chet tili darslari bilan bog'liq holda tasniflagan (Vorobeva, Katsap, 2022). Ulyanovsk (Rossiya) davlat texnika universitetining bir guruh magistrantlari D.Boshkov, M.Zardinov, S.Kulikov va A.Osipov Ulyanovsk shahridagi maktablardan birida ko'rish qobiliyati zaiflashishining chet tilni o'rganishga ta'siri bo'yicha tadqiqot o'tkazgan (Boshkov, 2019). Filologiya fanlari doktori, dotsent A.Mixaylova va Y.SHilova ingliz tili darslarida zaif ko'ruvchi bolalar bilan ishlash uchun integratsiyalashgan o'quv muhitini tashkil etish usullari va shakllarini o'rgangan (Mixaylova; Shilova, 2017).

AQSH Janubiy Illinoys universiteti tadqiqotchilari professor Gaylen Kapperman, elizabet Koster va Rahel Burman Brayl alifbosi asosida o'qiydigan bolalarga o'rganilayotgan chet tilidagi vazifa va yozma ishlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishning texnologik tartibini izohlab bergan (Kapperman, 2018). Turkiyaning Dicle universiteti professori Suleyman Basharan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarga ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda foydalanadigan texnika va materiallarni tahliliga e'tibor qaratgan (Basaran, 2012).

Tadqiqotda standartlashgan intervyu metodi qo'llanildi. Intervyu savollari tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan bo'lib, u bevosita yuzma-yuz shaklda olib borildi.

Tadqiqotda Buxoro va Farg‘ona shahridagi ko‘zi ojizlar maxsus maktabi chet tili o‘qituvchilari, jami 7 respondent ishtirok etdi. Respondentlarning 5 nafari ayol, 2 nafari erkak jinsiga mansub bo‘lib, ularning 1 nafari nogironligi bor, qolgan 6 nafari nogironligi bo‘lmagan o‘qituvchilar xisoblanadi. Respondentlarning o‘rtacha yoshi 25-35 oraliqidagi yoshni tashkil qiladi.


Buxoro shahri («Nurli maskan»)da faoliyat olib boruvchi ishtirokchilar shartli ravishda birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, Farg‘ona shahridagi («Nurli maskan»)da faoliyat olib boruvchi ishtirokchilar esa, beshinchi, oltinchi va ettinchi respondent shaklida belgilab olindi.

#### 4.Natijalar

Respondentlarga ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarda spelling ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq jami 15 ta savol bilan murojaat qilindi.

Dastlab respondentlarga «Shaxsiy tajribangizda ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni ingliz tiliga o‘qitishda siz eng ko‘p duch kelgan muammolar qaysilar?», degan savol berildi.

Intervyuda ishtirok etganlarning barchasi eng avvalo nafaqat talaffuz me‘yorlariga ixtisoslashtirilgan, balki ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga mo‘ljallangan umuman Brayl yozuvidagi va tiflopedagogik talablarga mos o‘quv adabiyotlari etishmasligi muammosini qayd etdilar. Shu bilan birga, uchinchi, beshinchi, oltinchi va ettinchi respondentlar Brayl yozuvidagi o‘zbek va ingliz tillaridagi alifbolar harflari yozilishi va o‘qilishi bilan bog‘liq muammoni aytib o‘tdi.



To'rtinchi respondent esa ayni holatlar bilan bir qatorda psixologik muammolar ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishlaridagi to'siqlardan biri ekanligiga e'tibor qaratdi. Uning aytishicha, aksar ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan o'quvchilar ingliz tilida adabiyotlar etishmasligi tufayli uni yaxshi o'zlashtirish imkonsiz, deb hisoblaydilar.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish, jumladan ularda spelling ko'nikmasini shakllantirishda sohaga oid o'quv adabiyotlarining etishmasligi eng birlamchi muammo sanaladi. Brayl yozuviga asoslangan o'zbek va ingliz tilidagi harflarning yozilishi hamda o'qilishi o'rtasidagi farqlar ierarxiyaning ikkinchi pog'onasidan o'rin oladi. Ingliz alifbosidagi harflarning yozilishi va talaffuzi o'rtasidagi farqlar (spelling) hamda ingliz tilidagi so'zlarning yozilishi va talaffuzi o'rtasidagi muammolar (transkripsiya) mos ravishda keyingi o'rinlarda turadi.

«O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarga ingliz tilini o'rgatishda talab qilinadigan maxsus o'quv adabiyotlari va materiallari ta'minlanganlik darajasini qanday baholaysiz?» degan savolga respondentlarning barchasi bu ko'rsatkich ancha pastligini aytib o'tdilar. Ular buni boshlang'ich sinflar (1–4-sinflar) uchun mo'ljallangan darsliklardan boshqa o'quv adabiyotlari va materiallarini bilmasliklari bilan izohladilar. Avval yaratilgan «Ingliz tili saboqlari» va «Brayl yozuvidagi inglizcha-o'zbekcha lug'at» singari o'quv adabiyotlari va materiallari mavjudligidan xabardor emas ekanliklarini aytib o'tdilar. Faqatgina ikki nafar respondent «Ingliz tili saboqlari» kitobini eshitgani, ammo u bilan tanish emasligini ta'kidladi.


Respondentlarning yuqoridagi javoblaridan ma'lumki, O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan o'rganuvchilarning ingliz tilini o'qitishga mo'ljallangan o'quv adabiyotlar hamda materiallar bilan ta'minlanganlik darajasi birmuncha past hisoblanadi. Mavjud o'quv adabiyotlari va materiallari ham maxsus maktablarga etib kelmagan. Joriy vaziyatni hisobga olgan holda, tegishli vazirliklar nodavlat notijorat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sohaga oid o'quv adabiyotlari, materiallari, multimedia mahsulotlari, ulardan foydalanishda talab qilinadigan jihozlarga bo'lgan ehtiyoj miqdorini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazib, uning natijalariga ko'ra, bosqichma-bosqich tarzda ayni talabni qondirishga qaratilgan mahsulotlar tayyorlash hamda ularning manzilli tarqatilishini tizimli yo'lga qo'yishga qaratilgan davlat dasturini ishlab chiqishi lozim.

«Sizningcha, maxsus maktab darsliklaridan tashqari yana qanday o'quv adabiyot va materiallarga masalan, (tekstbuklar,

lugʻatlar, tarqatma materiallar) ehtiyoj mavjud?», degan savolga respondentlarning barchasi bir ovozdan eng avvalo Brayl yozuvida bosilgan «inglizcha-oʻzbekcha» lugʻatlarga ehtiyoj mavjudligini taʼkidladi. Bunday lugʻatlar oʻquvchilarda soʻzlarning yozilishi va talaffuzi bilan bogʻliq koʻnikmalarni shakllantirishda yuzaga chiqadigan muammolarni hal qilishdagi muhim vosita ekanligi aytib oʻtildi.

Darslik va oʻquv qoʻllanmalaridan tashqari zarur boʻlgan qoʻshimcha adabiyotlar qatorida matnlar kitoblariga boʻlgan ehtiyoj ham keltirib oʻtildi. Chunki mavjud darsliklardagi mavzuli qisqa matnlar miqdori ancha cheklangan boʻlib, bu oʻquvchilarda ingliz tilida oʻqib oʻzlashtirish koʻnikmasini shakllantirish uchun etarli emas.

Ayni savol yuzasidan amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar natijalarining tahlillari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda koʻrish boʻyicha nogironligi boʻlgan oʻquvchilarga ingliz tilini oʻqitishda nafaqat darslik va oʻquv qoʻllanmalari, qolaversa, Brayl alifbosida chop etilgan «inglizcha-oʻzbekcha» lugʻatlar, matnlar kitoblari, badiiy va publitsistik adabiyotlar hamda tarqatma materiallarga



■ «Shaxsiy tajribangizdan kelib chiqib aytinchi, darslik va oʻquv qoʻllanmalardan tashqari qoʻshimcha adabiyotlar tanqisligi muammosini qanday usullar bilan hal qilishga intilaysiz?»

■ Buxoro shahrida joylashgan «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida faoliyat olib boradigan oʻqituvchilar dars jarayonida foydalaniладиган qoʻshimcha tarqatma materiallarni Brayl yozuvida chop etishga muvaffaq boʻlgan mualliflar tomonidan bosib chiqarilgan maʼlumot berilgan.

■ Fargʻona shahrida joylashgan «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida maʼlumot berilgan usullardan foydalanish matakasiga ega biron-bir mутахассис mavjud emasligi maʼlum boʻldi.

katta ehtiyoj mavjud. Ayni turdagi mavjud adabiyotlar ham miqdor jihatidan joriy ehtiyojni qondirish uchun etarli emas. Bundan tashqari, kam sonli boʻlsa-da Brayl yozuvida chop etilgan «inglizcha-oʻzbekcha» lugʻatlar, qoʻshimcha adabiyotlarning tarqatilishi ham manzilli yoʻlga qoʻyilmagan.

«Shaxsiy tajribangizdan kelib chiqib aytinchi, darslik va oʻquv qoʻllanmalardan tashqari qoʻshimcha adabiyotlar tanqisligi muammosini qanday usullar bilan hal qilishga intilaysiz?» degan

savolimizga respondentlar tomonidan quyidagicha javoblar berildi:


Buxoro shahrida joylashgan «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida faoliyat olib boradigan o'qituvchilar dars jarayonida foydalaniladigan qo'shimcha tarqatma materiallarni Brayl yozuvida chop etishga mo'ljallangan maxsus printerda bosib chiqarishini ta'kidladilar.

Bundan tashqari, respondentlarning barchasi ingliz tili darslarida talab qilinadigan Brayl yozuvidagi qo'shimcha materiallarni (masalan, mavzuli matnlar va lug'atlarni) qo'lyozma shaklda o'zlari tayyorlashlarini ma'lum qildilar. Ammo ularning shaxsiy tajribalaridan kelib chiqqan holda aytishlaricha, muammoning bunday echimi ko'p vaqt va resurs talab qiladi.

O'tkazilgan empirik tadqiqotning mazkur masalaga tegishli natijalarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sohada faoliyat yuritadigan mahalliy va xalqaro, davlat hamda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchilarida Brayl yozuvidagi materiallarni chop etishga mo'ljallangan maxsus printerlardan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan o'quv kurslari tashkil etishni tizimli tarzda yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq.

Qolaversa, ingliz tili darslari uchun mo'ljallangan Brayl yozuvidagi qo'shimcha o'quv materiallari muntazam ravishda yangilanib turilishi omili nazarda tutilsa, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida mavjud printerlar miqdorining cheklanganligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. 5 nafar respondentning fikriga ko'ra, mazkur muammoni «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatlariga Brayl yozuviga ixtisoslashgan displeylar olib kelish hamda o'qituvchilar va o'quvchilarni ulardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish orqali ham muayyan darajada hal qilish mumkin.

Shuningdek, 4 nafar respondent tomonidan yassi yozuvda tasvirlangan fotosuratlar, xaritalar, chizmalar o'rniga predmetlarning mulyajlari, suratlarning bo'rtma shakli kabi ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkinligi ta'kidlab o'tildi. Ayni tahlillar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sohaga mas'ul davlat tashkilotlari, mahalliy va xalqaro jamg'armalar, jamoat birlashmalari, shuningdek, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida faoliyat olib boradigan ingliz tili o'qituvchilari va boshqa soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhini tashkil etgan holda, bunday maxsus tiflota'lim talablariga mos ko'rgazmali o'quv qurollariga bo'lgan ehtiyoj hajmi, ularning turlari bo'yicha ro'yxatini shakllantirishga



qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazishi lozim.

Respondentlarga «Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan «inglizcha-o'zbekcha» lug'atlarning qanday formatda (masalan, faqat Brayl yozuvida, faqat audio shaklda yoki audiomateriallarni ilova qilgan holda Brayl yozuvida) tayyorlanishini ma'qul ko'rasiz?» degan savol bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga respondentlarning barchasi ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan maktab o'quvchilariga mo'ljallangan «inglizcha-o'zbekcha» lug'atlar audio materiallarni ilova qilgan holda brayl yozuvida tayyorlanishi lozimligini ta'kidlab o'tdilar. Barcha respondentlarning fikrlariga ko'ra, bunday lug'atlar faqat Brayl yozuvida tayyorlansa, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan maktab o'quvchilarining ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'zlashtirishlari bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi.

Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan Brayl yozuvidagi «inglizcha-o'zbekcha» lug'atlarni tayyorlashda ingliz tilidagi so'zlarning talaffuzini Brayl yozuviga asoslangan lotin alifbosidagi o'zbekcha harflar orqali ifoda etish yoki bunday ifoda o'rniga inglizcha so'zlarning talaffuzini ilova qilinadigan audiomaterial yordamida taqdim etish texnologiyalaridan qay biri samaradorroq ekanligi to'g'risidagi savol natijalari quyidagicha bo'ldi:

Respondentlarning barchasi bunday turdagi lug'atlarni tayyorlashda ingliz tilidagi so'zlarning yozilishi va ularning o'zbekcha tarjimai Brayl yozuvida taqdim etilishi, inglizcha so'zlarning talaffuzi esa, audio formatdagi materiallarni ilova qilish orqali berilishi zarurligini ta'kidladilar.

Ingliz tilidagi so'zlarning to'g'ri yozish va to'g'ri



talaffuz qilishni ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan maktab o'quvchilariga o'rgatishda yuzaga keladigan murakkabliklarni hal qilishda o'qituvchilar shaxsiy tajribalaridan kelib chiqqan holda turlicha echimlarni qo'llaydilar. Masalan, 6 va 7 respondentlar mazkur muammoni bolalarga ingliz tilidagi transkripsiya va harf birikmalarini to'g'ri o'qish qoidalarini o'rgatgan holda hal qilish mumkinligini aytadilar. 3 va 4 respondentlar bu usul ham mukammal echim bo'la olmasligini ta'kidladilar. Chunki ularning fikrlariga ko'ra, ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalariga mos kelmaydigan istisno holatlar mavjud. Bu esa talaffuzi qoidalarga mos kelmaydigan istisno holatlar asosida talaffuz qilinadigan so'zlarni uchratgan o'quvchida chalkashliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. 1, 2 va 5 respondentlar esa bunday muammolarni o'quvchilarga dars mashg'uloti mobaynida har bir so'zning talaffuzini og'zaki tarzda o'rgatish orqali hal etishini aytib o'tdilar. Ammo ularning kuzatishlariga ko'ra, o'quvchilar har doim ham ingliz tilidagi so'zlarning to'g'ri talaffuzini uzoq vaqt mobaynida esda saqlab qola olmaydilar.

Mazkur maqola uchun empirik asos vazifasini bajargan tadqiqot natijalari asosida aniqlangan vaziyat tahlillari shuni ko'rsatadiki:

1. O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan ingliz tili o'rganuvchilari uchun maktab darsliklaridan tashqari ham kam miqdorda bo'lsa-da o'quv adabiyotlari tayyorlanib nashr etilgan.

2. Ammo ularni manzilli tarzda oxirgi iste'molchigacha etkazib berish tizimli shaklda yo'lga qo'yilmagan.

3. Tayyorlangan o'quv materiallarini qaerdan qanday tartibda topish va foydalanish reglamentlari haqidagi ma'lumotlar etarli darajada jamoatchilikka ma'lum qilinmagan.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sohada faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat tashkilotlar, jamg'armalar, ilmiy va oliy ta'lim muassasalari, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchilari uchun ochiq bo'lgan axborot almashinuv portalini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Mazkur portalda sohaga oid loyihalar haqidagi xabarlar, tayyorlangan o'quv-uslubiy materiallar, ularni topish va ulardan foydalanish qoidalari, o'quv materiallarini tayyorlash uchun o'tkaziladigan tadqiqotlarga mo'ljallangan savolnomalar, mutaxassislar va ekspertlar bilan intervyular, bahslar, podkastlar, tajribali o'qituvchilarning onlayn shakldagi ochiq darslari kabilar e'lon qilib borilishi lozim. Shuningdek, bu portalda «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchilari uchun tajriba va fikr almashish imkonini beruvchi onlayn chatlar ham mavjud bo'lishi zarur. Negaki, o'tkazilgan tadqiqot jarayonida 4 nafar ishtirokchi ko'rish bo'yicha nogironligi

bo‘lmagan maktab o‘qituvchilari uchun metodik maqsadlardagi turli seminar-treninglar tashkil qilinishi, ammo ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan maktab o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha bunday mashg‘ulotlar tashkil qilinmaganligi, hatto o‘zaro tajriba almashinuv imkonini beradigan nafaqat jonli, balki onlayn platformalar yo‘qligini aytib o‘tishdi.

### Xulosa

Tegishli vazirliklar NNTlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sohaga oid o‘quv adabiyotlari, audiomateriallari, multimedia mahsulotlari, ulardan foydalanishda talab qilinadigan jihozlarga bo‘lgan ehtiyoj miqdorini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazib, uning natijalariga ko‘ra, bosqichma-bosqich tarzda ayni talabni qondirishga qaratilgan mahsulotlar tayyorlash hamda ularning manzilli tarqatilishini tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqishi lozim. Mazkur dasturda nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlashga ixtisoslashgan davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining bu boradagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadigan mexanizmlar o‘z ichiga qamrab olinishi zarur. O‘zbekistonning o‘zida ham Brayl alifbosida inglizcha matnlar kitoblari, badiiy va publitsistik adabiyotlar chop etib, ularni «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatlariga manzilli tarzda etkazib berishni tizimli va muntazam ravishda yo‘lga qo‘yish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi sohada faoliyat yuritadigan mahalliy va xalqaro, davlat hamda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchilarida Brayl yozuvidagi materiallarni chop etishga mo‘ljallangan maxsus printerlardan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan o‘quv kurslari tashkil etishni tizimli tarzda yo‘lga qo‘yishi maqsadga muvofiq. Ayni tahlillar natijalaridan ma‘lum bo‘ldiki, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi sohaga mas‘ul davlat tashkilotlari, mahalliy va xalqaro jamg‘armalar, jamoat birlashmalari, shuningdek, «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida faoliyat olib boradigan ingliz tili o‘qituvchilari va boshqa soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhini tashkil etgan holda, maxsus tiflota‘lim talablariga mos ko‘rgazmali o‘quv qurollariga bo‘lgan ehtiyoj hajmi, ularning turlari bo‘yicha ro‘yxatini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazishi lozim. Bunday tadqiqotlarni o‘tkazishni O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va inovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan grant loyihalari tanlovlarida buyurtmachi sifatida ishtirok etish yo‘li bilan ham

tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijasida aniqlangan ehtiyoj miqdori hamda shakllantirilgan maxsus ko'rgazmali qurollar ro'yxati asosida ularni muntazam ishlab chiqarish, manzilli tarzda etkazib berish tizimini yo'lga qo'yish imkoni yuzaga keladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qonunchilik tashabbusi mexanizmidan ham unumli foydalanishi mumkin. Ayni vaziyat O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktabta'limi vazirligi oldiga bunday metodik muammolarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bunday tadqiqotlarda Brayl yozuviga asoslangan ingliz alifbosidagi transkripsiya belgilarini qo'llash bo'yicha jahon tajribasini o'rganish zaruratini paydo qiladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

Abdelhameed, H. 2015. Teachers' and parents' attitudes toward the inclusion of students with intellectual disabilities in gen-eral education schools in Egypt. *Journal of the International Association of Special Education*. 16:1. 23-32. URL: <https://eric.ed.gov/?id=EJ1218650> Date of application: 09.09.2024.

Abu Shokhedim, S. S. 2024. Developing a training program in reading and writing Braille symbols in English language for students with visual disability in low elementary grades and measuring its effectiveness. *British Journal of Visual Impairment*. 42:1. 287-296. <https://doi.org/10.1177/02646196231197940>

Ali Alhabahbe, F; Subhi, Alhadidi M. 2022. The degree to which students with visual impairments in Jordanian Public Schools use their assistive technology to study subjects in inclusive schools from their point of view. *Dirasat Human & Social Sciences*, 49:2. 451–466. <https://doi.org/10.35516/hum.v49i2.1805>

Al Khateeb, J. 2010. *Teaching Children with Special Needs in Regular Schools*. 2nd ed. Dar Alfeker Publications. URL: [https://www.researchgate.net/publication/272942763\\_Teaching\\_Children\\_with\\_Special\\_Needs\\_in\\_Regular\\_Schools](https://www.researchgate.net/publication/272942763_Teaching_Children_with_Special_Needs_in_Regular_Schools) Date of application: 09.09.2024.

Argyropoulos V., Papadimitriou V. 2015. Braille reading accuracy of students who are visually impaired: The effects of gender, age at vision loss, and level of education. *Journal of Visual Impairment & Blindness*. 109:2. 107–118. URL: <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1114558.pdf> Date of application: 09.09.2024.

Basaran, S. 2012. *Energy Education Science and Technology Part B Social and Educational Studies*. 2. 217-226.

Bishop, V. 2004. *Teaching visually impaired children*. Charles C Thomas Publisher. URL: [https://books.google.co.uz/books/about/Teaching\\_Visually\\_Impaired\\_Children.html?id=gnkFefW-6i0C&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Teaching_Visually_Impaired_Children.html?id=gnkFefW-6i0C&redir_esc=y) Date of application: 09.09.2024.

Boshkov, D. 2019. Features of teaching English to schoolchildren with visual impairments. *Science Diary*. 6. 10.

Chaovanajinda, V.; Sirivungruang, I.; Niyomphol W. 2021. The development of English Braille literacy for the students with visual

impairment by using an activity-based learning method [Conference session]. The 7th Ratchasuda Virtual International Conference on Disability. URL: [https://www.researchgate.net/publication/354650329\\_The\\_Development\\_of\\_English\\_Braille\\_Literacy\\_for\\_the\\_Students\\_with\\_Visual\\_Impairment\\_by\\_Using\\_an\\_Activity-Based\\_Learning\\_Method](https://www.researchgate.net/publication/354650329_The_Development_of_English_Braille_Literacy_for_the_Students_with_Visual_Impairment_by_Using_an_Activity-Based_Learning_Method) Date of application: 09.09.2024.

De Boer, A. A.; Timmerman, M. E.; Pijl, S. J. & Minnaert, A. E. M. G. 2012. The psychometric evaluation of a questionnaire to measure attitudes towards inclusive education. *European Journal of Psychology of Education*. 27. 573-589. <https://doi.org/10.1007/s10212-011-0096-z>

Elkins, J.; Van Kraayenoord, C. E. & Jobling, A. 2003. Parents' attitudes to inclusion of their children with special needs. *Journal of Research in Special Educational Needs*, 3(2), 122-129. <https://doi.org/10.1111/1471-3802.00005>

Gaad, E. 2004. Cross-cultural perspective on the effect of cultural attitudes towards inclusion for children with disabilities. *International Journal of Inclusive Education*, 8:3/ 311-328. <https://doi.org/10.1080/1360311042000194645>

Gritsishina, N.; Guryeva, L. 2011. Methods of teaching the blind and visually impaired a foreign language using gaming technologies. *Almanac of modern science and education*. 4:47. 124.

Hadidi, M. 2011. *An introduction to visual disability*. 4th ed. Dar Al Fikr Publication.

Harrison, J.; Gregory, C.; Alsup J. 2003. Using distance education for families to improve children's Braille literacy. *Journal of Visual Impairment & Blindness*. 97. 169–172.

Holbrook, M.; Nannen, L. 1991. Method of literacy instruction for Braille. *Journal of Visual Impairment & Blindness*. 91:5. 420–422.

Kapperman, Gaylen; Koster, Elizabeth; Burman, Rachel. 2018. The Study of Foreign Languages by Students Who Are Blind Using the JAWS Screen Reader and a Refreshable Braille Display. *Journal of Visual Impairment & Blindness*. Northern Illinois University. May-June. 317-323. <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0145482X1811200312>

Mallaev, D.; Nurmagomedova, H. 2017. Problems of teaching foreign languages to children with visual impairments in the context of the implementation of the subprogram «English-speaking Dagestan». *Bulletin of the Dagestan State Pedagogical University. Psychological and pedagogical sciences*. 11:3. 68-72.

Mavropalias, T.; Alevriadou, A. & Rachanioti, E. 2021. Parental perspectives on inclusive education for children with intellectual disabilities in Greece. *International Journal of Developmental Disabilities*. 67:6. 397-405. <https://doi.org/10.1080/20473869.2019.1675429>

Mikhailova A., Shilova Yu. 2017. Involvement of children with visual impairments in the educational process in English lessons in an inclusive class. *Language and text*. 4:3. 116–128. <https://doi.org/10.17759/langt.2017040312>

Minina, O.G.; Rocheva, N.I.; Konevskaya E.V. 2011. Methods of individual teaching of visually impaired students English. *Inclusive education: methodology, practice, technologies*. 203–204.

Nikolaev, A. 2019. Innovative approach to teaching foreign languages

to blind students in the context of inclusive education. World of science, culture, education. 6:79. 320.

On measures to bring the activity of popularization of foreign language learning to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan. 2021. URL: <https://kun.uz/en/news/2021/05/20/uzbekistan-to-establish-agency-for-promoting-foreign-language-learning> Date of application: 09.09.2024.

Vorobyova, O.A.; Katsap O.Yu. 2022. On the Peculiarities of Teaching Schoolchildren with Visual Impairments English. St. Petersburg, 8.

Vostrova, E.E. 2016. Features of teaching visually impaired and blind students a foreign language. Young scientist. 16.1. 120.1. 6-8.

**Muallif haqida:**

XASANOVA Gulsanam — Phd, dotsent, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti chet tillar kafedrasini mudiri, [gulsanam.khasanova@jmcu.uz](mailto:gulsanam.khasanova@jmcu.uz)

TOSHOV Xurshid — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, [x.toshov@nuu.uz](mailto:x.toshov@nuu.uz)

QURBONOV Ozod — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti, [ozodqurbonov1987@gmail.com](mailto:ozodqurbonov1987@gmail.com)

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ШКОЛЬНИКОВ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены проблемы формирования навыков правильного произношения английских слов у школьников с нарушениями зрения в Узбекистане методом интервью. Это связано с отсутствием литературы по Брайлю, различиями, возникающими в связи с написанием и произношением слов на узбекском и английском языках, путаницей, возникающей из-за сходства и различий между английским алфавитом на основе Брайля и узбекским алфавитом на латинской графике, отсутствием тифлокатегорических материалов, сложностями, связанными с подготовкой основной и дополнительной учебной литературы, а также с тем, что у в изучении языка особое внимание уделяется анализу таких проблем, как психологические трудности.

**Ключевые слова:** англо-узбекский словарь, шрифт Брайля, правописание, тифлотообразование, специализированная школа-интернат «Нурли маскан», специальный принтер, человек с нарушениями зрения, чтение, письмо, контактная тетрадь, аудио.

**Об авторах:**

XASANOVA Gulsanam — Phd, доцент, заведующая кафедрой иностранных языков Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, [gulsanam.khasanova@jmcu.uz](mailto:gulsanam.khasanova@jmcu.uz)

ТОШОВ Хуршид — Phd, доцент, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, [x.toshov@nuu.uz](mailto:x.toshov@nuu.uz)

QURBANOV Aza — Докторант Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, [ozodqurbonov1987@gmail.com](mailto:ozodqurbonov1987@gmail.com)